ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi: milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Резюме. В статье представлены способы изучения областей силлогизма, умеренности, синергетики, герменевтики и прагматического литературоведения, связанных с прагмалингвистикой, на основе антропоцентрической теории. Рассматривается возможность уточнения возникновения общих черт и специфики областей, связанных с прагмалингвистикой, посредством прагматического анализа.

Rezume. The article shows ways to study the fields of syllogism, neutralization, synergetics, hermeneutics, and pragmatic literary studies related to pragmalinguistics based on anthropocentric theory. It explores the possibility of clarifying the emergence of commonalities and specificities of fields related to pragmalinguistics through pragmatic analysis.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DISGRAFIYAGA XOS XATOLARNING YOSHGA BOG'LIQ DINAMIKASI

Abdullajonova Madina To'lanboy qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Til va nutq masalalari, nutqiy faoliyat, xususan, yozma nutq faoliyatining shaxs rivojlanishiga ta'siri masalasi hamisha tadqiqot markazida bo'lib kelgan. Sababi borliqni anglash, tafakkur qilish, ilm egallash, asrlar davomida to'plangan bilimlarni avlodlarga uzatish va eng muhimi, o'zaro muloqot jarayonida yozma nutq faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozma nutq og'zaki nutqdan farqli ravishda avval boshidanoq ongli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. To'g'ri, yozish har qancha maktab ta'limi bilan bog'lanmasin, uning ildizlari erta bolalik davriga borib taqaladi. Bolaning ilk chizgilari borliqni anglashga bo'lgan dastlabki belgilardan biri sifatida baholanishi zarur. Shunga qaramay, haqiqiy yozma nutq jarayonining birinchi bosqichi yozuv o'zlashtirish tushunchasi bilan bog'lanib, bola harflarni tovushlarning yozuvdagi belgisi sifatida qabul qila olganida boshlanadi. Yozuv o'zlashtirish jarayoni har doim ham bir tekisda va oson kechmaydi. Sababi, til murakkab belgilar tizimi. Bu tizimni egallash uchun bolada fonematik idrok, fonematik tahlil, vizaul analiz-sintez jarayonlari hamda grafomotor qobiliyat yetarli darajada shakllanishi lozim. Aks holda, yozuv o'zlashtirish jarayoni samarasiz kechadi va ta'limning keyingi bosqichlarida disgrafiya singari murakkab yozma nutq buzilishlariga olib keladi.

Disgrafiya doimiy va takrorlanuvchi xatolar oqali namoyon bo'ladigan yozish jarayonining qisman buzilishidir. Disgrafiyada harflarning almashtirilishi, tushirilishi, so'z tarkibining umuman buzib yozilishi, shaklan bir-biriga o'xshash harflarning chalkashtirilishi, agrammatizmlar hamda harflar shaklining nomutanosibligi singari bir qator xatolar kuzatiladi. E'tiborli jihati, bu xatolar imlo qoidalarini yetarlicha egallay olmaslik bilan ham, aqliy zaiflik yoki eshitish va ko'rishga aloqador nuqsonlar bilan ham bog'liq emas. Tadqiqotchi olimlar McCloskey va Rappning ta'kidlashicha, disgrafiya nafaqat yozuv faoliyatining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki bolaning umumiy ta'lim faoliyatini ham ma'lum darajada cheklaydi[1].

Disgrafiya doirasida olib borilgan aksariyat tadqiqotlar uzoq muddatli bo'lib, bu muammo doirasida ishonchli dalillarni taqdim etish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Jumladan, Hamstra-Bletz va Blote tomonidan olib borilgan tadqiqot davomida 121 nafar niderlandiyalik boshlang'ich sinf o'quvchilari 5 yil davomida kuzatilgan. Tadqiqot jarayonida ushbu

[1] McCloskey M., Rapp B. Developmental Dysgraphia: An Overview and Framework for Research // Cognitive Neuropsychology. – 2017. – Vol. 34, № 3–4. – P. 66.

o'quvchilar tomonidan yozilgan matnlar yozuvning lingvistik-kognitiv va periferik jihatlariga ko'ra baholab borilgan. Natijada, disgrafiya belgisi mavjud bolalarning nozik motorika qobiliyati sog'lom tengdoshlariga qaraganda pastroq ekanligi kuzatilgan. Shuningdek, bunday o'quvchilarda shaxsiy uslub hamda yozish jarayonida nazorat qilishning sustligi ham asosiy belgi sifatida qayd etilgan. Shunga qaramay, nazorat guruhi hamda tajriba guruhi ishtirokchilarining yozish tezligida farq sezilmagan[1]. Bizningcha, boshlang'ich sinflarda o'quvchi yozuvidagi disgrafiyaga xos xatolarning aksariyati, ko'pincha, fiziologik xatolar sifatida baholansa ham, aynan mana shu kabi tadqiqotlar disgrafiyani ta'limning erta bosqichida aniqlash hamda tuzatish imkonini beradi.

Yana bir tadqiqotchi guruh vakillari Smits-Engelsman va Van Galen disgrafiya va psixomotor rivojlanishning me'yoriy o'zgarishlari o'rtasidagi farqni aniqlash maqsadida 1 yil davomida 16 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinovdan o'tkazadi. Tajriba xulosasiga ko'ra, disgrafiyali bolalar neyromotor qaltirash va yozuvning fazoviy aniqligini nazorat qila olmaslik bilan sog'lom bolalardan farqlanadi. Muhim jihati shundaki, bu belgilar yil yakunida ham o'zgarmasdan qolgan[2].

Duiser va boshqalar tomonidan olib borilgan uzoq muddatli tadqiqot esa yozuvdagi qiyinchiliklarning rivojlanish dinamikasini tushunishda alohida ilmiy ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar 173 nafar boshlang'ich sinf o'quvchisini to'rt yil davomida kuzatib, yozuv sifati va tezligining yillar davomida o'zgarishini hamda dastlabki baholash natijalarining keyingi rivojlanishni bashorat qilish imkoniyatini tahlil qilganlar. Tadqiqot natijasiga ko'ra, bir yillik ta'lim yakunida yozuvi qoniqarsiz deb baholangan bolalarning 87 foizida keyingi yillarda sezilarli yaxshilanish kuzatilgan[3]. Biroq tadqiqot natijalari barcha bolalarda yozuvdagi qiyinchiliklar bir xil tarzda bartaraf bo'lmasligini ham ko'rsatadi. Tadqiqotning muhim metodologik xulosalaridan yana biri dastlabki baholash natijalari uzoq muddatli rivojlanish haqida aniq xulosa bera olmasligidir.

Mazkur natijalar disgrafik belgilarni baholashda bir martalik tekshiruvlardan ko'ra uzoq muddatli kuzatuvlarning ilmiy ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, dastlabki yozuv qiyinchiliklari barcha holatlarda ham disgrafiya mavjudligini anglatmaydi, biroq ayrim bolalarda yozuvdagi nuqsonlar uzoq muddat davom etadi va hatto yomonlashishi mumkin. Aynan shu jihat disgrafiyaga xos xatolarning yillar davomida saqlanishini individual rivojlanish dinamikasi asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Karlsdottir va Stefansson tomonidan o'tkazilgan tajribalar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozuvning o'zlashtirilishi, yozuvdagi qiyinchiliklarning rivojlanish dinamikasini o'rganishga bag'ishlangan muhim ishlardan biri sanaladi. Tadqiqotchilar 407 nafar o'quvchini 1-sinfdan 5-sinfga qadar kuzatib, yozuv sifati va tezligining rivojlanishini hamda yozuv buzilishlarining yuzaga kelish omillarini tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalari yozuvdagi qiyinchiliklar vaqt o'tishi bilan bir xil darajada saqlanib qolmasligini, biroq ayrim bolalarda ular uzoq muddat davom etishi mumkinligini ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, 1-sinf oxirida bolalarning 27 foizi yozuv buzilishiga ega deb tasniflangan bo'lsa, 5-sinf oxiriga kelib bu ko'rsatkich 13 foizni tashkil etgan[4].

Bosga-Stork tomonidan olib borilgan tadqiqot esa yozuv faoliyatining rivojlanishini guruh natijalari bilangina emas, balki individual rivojlanish asosida ham tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotning umumiy maqsadi boshlang'ich maktabning dastlabki uch yili davomida grafomotor nazorat samaradorligining shakllanishini o'rganishdan iborat bo'lib, buning uchun 34 nafar o'quvchi uch yil davomida muntazam kuzatilgan[5]. Muallif yozuv faoliyatini faqat motor jarayoni sifatida emas, balki harakat, til va kognitiv jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasi sifatida talqin qiladi va aynan shu o'zaro bog'liqlikni longitudinal kuzatuv orqali tahlil qiladi.

Mazkur maqolada disgrafiyaga xos xatolarning o'quvchilar yozma nutqida namoyon bo'lishini hamda uning yoshga bog'liq xususiyatlarini aniqlash maqsadida biz tomonidan olib borilgan 3 yillik tadqiqotning birinchi va uchinchi yilida olingan natijalar muhokama qilinadi. Tajribalar bir umumta'lim maktabning 2–9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan bo'lib, qo'lga kiritilgan natijalarni sifat jihatdan tahlil qilish uchun 3 ta respondent yozma ishi namunalari tanlab olingan. Aynan mana shu 3 nafar respondent

[1] Hamstra-Bletz L., Blöte A.W. A Longitudinal Study on Dysgraphic Handwriting in Primary School // Journal of Learning Disabilities. – 1993. – Vol. 26, №10. – P. 689–699.

[2] Smits-Engelsman B. C. M., Van Galen G. P. Dysgraphia in Children: Lasting Psychomotor Deficiency or Transient Developmental Delay? // Journal of Experimental Child Psychology. – 1997. – Vol. 67, No. 2. – P. 164.

[3] Duiser I.H.F., Ledebt A., Van der Kamp J., Savelsbergh G.J.P. Persistent handwriting problems are hard to predict: a longitudinal study of the development of handwriting in primary school // Research in Developmental Disabilities. – 2020. – Vol. 97. – Article 103551. – P. 2.

[4] Karlsdottir R., Stefansson T. Problems in developing functional handwriting // Perceptual and Motor Skills. – 2002. – Vol. 94, No. 2. – P. 623.

[5] Bosga-Stork I.M. A Longitudinal Study of Preparatory Handwriting: Developing Efficiency in Motor Control: PhD Thesis. – Nijmegen: Radboud University, 2016. – 193 p.

tanlab olinganligining asosiy sababi ularning yosh jihatdan yaqinligi, disgrafik xatolarning yaqqol namoyon bo'lishi va tahliliy materiallarning to'liqligidir.

Birinchi respondentning ikki yillik yozma ishlari yozma nutqning turli neyrolingvistik bosqichlarida saqlanib qolayotgan barqaror qiyinchiliklarni ko'rsatadi (1-jadval). Kuzatuvning dastlabki yilida respondent yozuvida fonetik-fonologik, optik, motor hamda agrammatik disgrafiyaga xos belgilar kuzatilgan. Uchinchi yilga kelib, ushbu xatolar kamayish o'rniga ko'paygan va yanada murakkabroq ko'rinishda namoyon bo'lgan. Bu tizimli tuzatish ishlari tashkil etilmaganligi, hamda yoshga bog'liq ravishda yozma nutq faoliyatiga qo'yiladigan talablarning ortishi natijasida xatolar yanada og'irlashganligi bilan izohlanishi mumkin.

Respondent yozuvida fonetik-fonologik disgrafiyaga xos xatolar fonematik tahlildagi nuqsonlar natijasida kelib chiqqan. Jumladan, kuzatuvning dastlabki yilida, aksariyat holatlarda, harflarni chalkashtirish yondosh bo'g'indagi tovush ta'sirida yuz bergan bo'lsa, keyingi bosqichda fonematik tahlil darajasining sustligi sababli unli harflarni tushirib qoldirish, so'z tarkibiga ortiqcha harf kiritish bilan bog'liq xatolar soni ko'paygan. Kuzatuvning har ikkala bosqichi uchun tegishli bo'lgan so'z tarkibini buzib yozish esa fonologik obrazning beqarorligi hamda vaqtinchalik ishchi xotiradagi zaiflik bilan bog'lanishi mumkin.

Respondentda vizual tahlil jarayonidagi kamchiliklarni yaqqol ko'rsatib beruvchi o'xshash elementli harflarni almashtirish, harflarga ortiqcha element qo'shib yozish yakuniy tajriba bosqichida ham saqlanib qolgan. Ayniqsa, k harfini h shaklida yozish ham optik disgrafiya belgisi, ham periferik nuqson sifatida ham baholanishi mumkin. Bu esa tahlil jarayonini yanada murakkablashtiradi.

Motor disgrafiyaga xos belgilar birinchi yilda satr chizig'idan og'ish va harflar hajmining nomutanosibligi orqali namoyon bo'lgan. Bu bolaning grafomotor nazorati, qo'l harakati koordinatsiyasi va yozuv maydonida fazoviy joylashuvni boshqarishida qiyinchilik borligini ko'rsatadi. Harflar shaklidagi xilma-xillik uchinchi yilga kelib ham o'zgarmasdan qolgan. Umuman olganda, respondent yozuvining periferik jihatida nisbatan yaxshilanish kuzatilgan bo'lishiga qaramay, yozuvning umumiy aniqligi hali yetarli darajada shakllanmagan.

Agrammatik disgrafiyaga xos xatolar ham respondent yozuvida muhim o'rin egallaydi. Birinchi yildagi agrammatizmlar so'zning yaxlit morfologik tuzilishini idrok etishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, kuzatuvning so'nggi bosqichiga kelib xatolar yanada murakkablashib, egalik va kelishik qo'shimchalarini tushirib yozish, kelishik qo'shimchalarini almashtirish, gaplarni tugallamaslik tarzida namoyon bo'lgan.

Artikulyar-akustik disgrafiyaga xos xatolar respondentda har ikki yilda ham kuzatilmagan. Bu xatolar nutq apparati yoki talaffuz obrazlarining noto'g'ri shakllanishi bilan emas, balki fonologik tahlil, vizual idrok, motor nazorat va grammatik qurilishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, birinchi respondentda disgrafik belgilar ikki yil davomida saqlanib qolgan. Birinchi yilda xatolar ko'proq harf-tovush mosligi, harf shakllarini farqlash va grafomotor nazorat bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, uchinchi yilda fonetik-fonologik va agrammatik xatolarning murakkablashgani kuzatiladi. Fonetik-fonologik va agrammatik xatolarning davom etishi bolaning yozma nutqida ichki nutq, fonologik va morfologik tahlil, sintaktik rejalashtirish jarayonlari sust shakllanganidan dalolat beradi.

1-jadval

Respondent – 1.	1-kuzatuv yili (11-yosh)	3-kuzatuv yili (13-yosh)
Fonetik-fonologik disgrafiyaga xos xatolar	a) so'z tarkibidagi boshqa tovushning kuchli ta'siri natijasida harflarni almashtirish: qilmoqchiman – qilmoqchimin; b) so'z tarkibini buzib yozish: noyabr – noyolari.	a) so'z tarkibidagi unli harflarni tushirib qoldirish: agar – agr, go'shamizni – gshamizni; b) so'z tarkibiga ortiqcha harf kiritish: boshlaymiz – bosholoymiz; c) so'z tarkibini buzib yozish: olisroqda – olisitiroqdon, qolsak – qolshao, g'ash – hoz.
Artikulyar-akustik disgrafiyaga xos xatolar	Kuzatilmadi	Kuzatilmadi
Optik disgrafiyaga xos xatolar	a) o'xshash elementli harflarning almashtirilishi: chiroyli – chizoyli, ko'prik – hoprik, kamalak – hamalah, oynali – oymali; b) harflarga ortiqcha element qo'shib yozish.	a) o'xshash elementli harflarning almashtirilishi: ko'nglimiz – honnimiz, ko'ngil – hongil, kishilarning – hoshilarning; b) bir so'zni bir o'rinda ikki marotaba yozish.

Motor disgrafiyaga xos xatolar	a) satr chizig'idan og'ish; b) harflar hajmining nomutanosibligi.	a) harflar shaklining nomutanosibligi; b) so'zlarning tushunarsizligi.
Agrammatik disgrafiyaga xos xatolar	Bitta so'zni qismlarga ajratib yozish: foydalanaman – foy dalanmoqchiman.	a) egalik va kelishik qo'shimchalarni tushirib yozish; b) kelishik qo'shimchalarini almashtirish (dan o'rniga da); c) gaplarni tugallamaslik.

Ikkinchi respondent yozma ishlarining tahlili mazkur respondentda asosan fonetik-fonologik disgrafiyaga xos xatolar ustunligini ko'rsatadi. Ikkala kuzatuv bosqichida ham tovushlarni farqlash, fonemalarni grafemalarga moslashtirish, so'zning fonologik tarkibini to'g'ri tahlil qilish va tartibni saqlash bilan bog'liq xatolar uchraydi. Respondent ayrim so'zlarda tovushlarni almashtirgan, ayrim fonemalarni tushirib qoldirgan yoki so'z tarkibini fonologik jihatdan buzib yozgan. Ayniqsa, so'z tarkibidagi unlilarni idrok etish bilan bog'liq jiddiy kamchilik kuzatilgan. Bu holat fonematik eshituv, fonologik tahlil va tovushlar ketma-ketligini nazorat qilish jarayonlarida qiyinchilik mavjudligiga ishora qiladi.

Respondentda gap tuzilishining to'liq shakllanmasligi, ayrim so'zlarning grammatik jihatdan noto'g'ri bog'lanishi yoki mustaqil so'zlarning qo'shib yozilishi kabi agrammatik disgrafiyaga oid ayrim belgilar ham kuzatildi.

Optik disgrafiyaga oid xatolar kuzatuvning dastlabki bosqichida aniqlangan bo'lsa ham, tajribaning oxirgi yiliga kelib, bu turdagi xatoliklar, deyarli, uchramaydi.

Muhim jihati shundaki, respondent yozma ishlarida artikulyar-akustik va motor disgrafiyaga xos belgilar ikkala bosqichda ham aniqlanmadi. Demak, ushbu respondentda xatolar harf shaklini ko'rish orqali farqlay olmaslik, grafomotor harakatlarning sustligi yoki talaffuzdagi buzilishlarning yozuvga ko'chishi bilan izohlanmaydi. Aksincha, asosiy muammo yozma nutqning fonologik bosqichida, ya'ni tovushlarni ajratish, ularni barqaror fonemalarga moslashtirish va grafema bilan ifodalash jarayonida yuzaga kelgan.

Umuman olganda, vizual tahlil bilan bog'liq xatoliklar yoshga bog'liq bo'lganligi va motor belgilar kuzatilmagani sababli mazkur respondentda yozuvning periferik komponentlari nisbatan saqlangan, asosiy buzilish esa fonologik kodlash va fonema-grafema mosligini ta'minlash singari yozish jarayonining markaziy lingvistik komponentlariga aloqador degan xulosani taqdim etish mumkin.

2-jadval

Respondent-2	1-kuzatuv yil (11 yosh)	2-yil (13-yosh)
Fonetik-fonologik disgrafiyaga xos xatolar	a) so'z tarkibidagi unli harflarni tushirib qoldirish: diktant – diktd, shug'ullanishar – shug'ulrshr, bildirmay – bldlmay; b) jarangli-jarangsiz juftliklarni almashtirish: tol – dol, tut – tud, faoliyat – volyat; c) so'z tarkibidagi boshqa tovushning kuchli ta'siri natijasida harflarni almashtirish: tarbiya – rabrbya, sizning – zizng, to'qqiz – qo'qqiz, beshik – beshish.	a) so'z tarkibidagi unli harflarni tushirib qoldirish: go'zallik – go'zalg // go'zlg // go'zllg, ko'rmasdan-ko'rmsdan; b) so'z tarkibiga ortiqcha harf kiritish: ta'rifi – tarirfi, gul- gull; c) bir nechta harflarni yoki bo'g'inni tushirib yozish: birinchi – birchi, tassurotni – taassurni; d) so'z tarkibini buzib yozish: tavsiflashga – tavqlshga, maskandan – mod, go'zallashtirgani – go'zlytrgn.
Artikulyar-akustik disgrafiyaga xos xatolar	Kuzatilmadi	Kuzatilmadi.
Optik disgrafiyaga xos xatolar	a) o'xshash elementli harflarni almashtirish: keltirish – htrsh, kasbini – kslni; b) harf va raqamlarni yozishdagi beqarorlik, harflarning vizual tasvirida noaniqlikning kuzatilishi; c) bir so'z yoki jumlaning qayta-qayta yozilishi, so'z yoki jumlalarning butunlay tashlab ketilishi.	Kuzatilmadi.

Motor disgrafiyaga xos xatolar	Kuzatilmadi	Kuzatilmadi.
Agrammatik disgrafiyaga xos xatolar	a) ikkita alohida so'zni qo'shib yozish: ish emas – ishemas;	a) ikkita alohida so'zni qo'shib yozish: yuzi ham – yuzham, maskandan ham – modhom, turishi lozim – turshilozm; b) bitta so'zni qismlarga ajratib yozish: yuzlarda – yuz lorda.

Uchinchi respondent yozma ishlarining tahlili disgrafiyaning aralash turi mavjudligini ko'rsatadi (3-jadval). Mazkur respondentda fonetik-fonologik, artikulyar-akustik, optik va agrammatik disgrafiyaga xos xatolar birgalikda namoyon bo'lgan.

Fonetik-fonologik disgrafiyaga oid xatolar respondent yozma ishlarida yetakchi o'rinni egallaydi. Ikkala kuzatuv bosqichida ham tovushlarni almashtirish, tushirib qoldirish, fonologik jihatdan yaqin birliklarni farqlay olmaslik, so'z tarkibidagi tovushlar ketma-ketligini buzish holatlari uchragan. Bunday xatolar respondentning fonematik farqlash, tovush tarkibini tahlil qilish va fonema-grafema mosligini barqaror saqlashda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelayotganligini ko'rsatadi. Matn va gap qurilishi murakkablashgani sari fonetik-fonologik xatolarning ham saqlanib qolishi markaziy-lingvistik qiyinchiliklar barqaror ekanini bildiradi.

Respondent yozma nutqida artikulyar-akustik disgrafiyaga xos xatolar ikki yil davomida muntazam uchradi. Xususan, til orqa qator g tovushi o'rniga til oldi qator d tovushini, til orqa qator jarangli z tovushi til oldi qator jarangsiz sh tovushini talaffuz qilish va yozuvda ham xuddi shunday yozish bola artikulyatsiya tizimidagi jiddiy kamchilikdan dalolat beradi.

Optik disgrafiyaga oid belgilar ham respondent yozma ishlarida uchragan. Jumladan, harf elementlarini tushirib qoldirish, ortiqcha element qo'shish, so'z tarkibidagi ayrim qismlarni takrorlash kabi holatlar qayd etilgan. Bu esa grafemalarning vizual obrazini saqlash, yozuv jarayonida vizual nazoratni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarni ko'rsatadi. Respondentda optik xatolar fonetik-fonologik xatolardan mustaqil holda ham, ular bilan qo'shilgan holda ham namoyon bo'lgan.

Motor disgrafiyaga xos belgilar dastlabki kuzatuv bosqichida mavjud bo'lgan bo'lsa-da, keyingi bosqichda kuzatilmagan. Bu holat yozuvning grafomotor komponentida nisbatan ijobiy o'zgarish borligini ko'rsatadi. Biroq motor jihatdagi bunday yaxshilanish yozma nutqning markaziy-lingvistik komponentlaridagi xatolarning kamayishiga ta'sir qilmagan. Bu esa, yozma nutq faoliyati sof grafomotor jarayon emasligini yana bir bor dalillaydi.

Agrammatik disgrafiyaga xos xatolar respondent yozma ishlarida ikkala bosqichda ham saqlangan. Gaplarning tugallanmasligi, so'z birikmalarining tushirib qoldirilishi, mustaqil sodda gaplarning qo'shib yozilishi kabi holatlar yozma nutqning sintaktik tashkil etilishida qiyinchilik mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, uchinchi respondentda disgrafiyaning aralash turi yaqqol namoyon bo'ladi. Kuzatuvning keyingi bosqichida motor komponentlar nisbatan yaxshilangan bo'lsa-da, fonetik-fonologik, artikulyar-akustik, optik va agrammatik xatolar saqlanib qolgan. Demak, disgrafik xatolar vaqt o'tishi bilan faqat kamayish shaklida emas, balki matn murakkablashgani sari yanada murakkab lingvistik darajalarda namoyon bo'lishi ham mumkin.

3-jadval

Respondent - 3	1-kuzatuv yili (12 yosh)	3-kuzatuv yil (14 yosh)
Fonetik-fonologik disgrafiyaga xos xatolar	a) so'z tarkibidagi undosh harflarni tushirib qoldirish: maktabga – makabta; b) so'z tarkibiga ortiqcha harf kiritish: yigirma – yigizgama; c) bir nechta harflarni yoki bo'g'inni tushirib yozish: toshga yozgani – tashgani; d) so'z tarkibini buzib yozish: istayman – ishgarma, binolar – bitnalam, burglar – basdalar, sarg'ayadi – sahrg'azadi.	a) so'z tarkibini buzib yozish: Vatan – vatangan, ona – anam, allasidan – allasidng, ko'ngilochar – dandir ochay; negaki – nengagi, boshlaymiz – boshlar bar, haqiqiy – hadin; b) so'z tarkibidagi unli harflarni tushirib qoldirish: narsalar – nasrsalr.

Artikulyar-akustik disgrafiyaga xos xatolar	a) z tovushlari o'rniga sh talaffuz qilish va shunday yozish: maza – masha, boramiz – boramish; b) g tovushi o'rniga d talaffuz qilish va shunay yozish: yozgani – yordani.	a) g tovushi o'rniga d tovushini talaffuz qilish va shunday yozish: vatanga – vatanda, go'shamiz – do'zamiz; b) z, s tovushlari o'rniga sh talaffuz qilish va shunday yozish: qalbimizga – qalbimishga, olisroqda – olishyaqda, qolsak – qolshad; c) r tovushi o'rniga y harfini yozish yoki so'z tarkibida mazkur harfni tushirib qoldirish: quvontira – quvandiya, kengliklariga – kenglidlaga, ruhlarini – yuhlari.
Optik disgrafiyaga xos xatolar	a) o'xshash elementli harflarning chalkashtirilishi: nutq – mutq, olmosh – olnosh, hikoya – kuhoya, sentabr – semtabr, turkum – tuzkum; b) so'z tarkibidagi bir harfni bir necha bor yozish: turkumlarini – turkumlaarrinni; c) harflarning vizual tasvirida noaniqlik kuzatilishi.	a) harflarga ortiqcha elementlar qo'shib yozish; b) harf elementlarini tushirib qoldirish; c) so'zlarni bir necha bor takrorlash; d) so'z tarkibidagi bir tovushni bir necha bor yozish.
Motor disgrafiyaga xos xatolar	a) satr chizig'idan og'ish; b) harflar hajmining nomutanosibligi; c) «qaltiroq» qo'l yozuvi.	Kuzatilmadi
Agrammatik disgrafiyaga xos xatolar	a) ikkita alohida so'zning qo'shib yozilishi: toshga yozgani – tashgani; b) gaplarning tugallanmasligi.	a) so'z birikmalarining tushirib qoldirilishi; b) gaplarning tugallanmasligi.

Tajriba natijalaridan xulosalash mumkinki, disgrafiya yozma nutq faoliyatining samaradorligini cheklovchi, o'z-o'zidan bartaraf bo'lmaydigan, murakkab kognitiv muammo. Disgrafiyaga xos xatolar bola rivojlanishining ma'lum bosqichlarida nisbatan kamayishi mumkin, lekin muammoni to'liq bartaraf etish uning og'irlik darajasiga, tuzatish ishlarining to'g'ri va o'z vaqtida tashkil etilishiga bog'liq. Ayniqsa, og'zaki nutqdagi muammolar yozma nutqda doimiy saqlanib qolishini hisobga olgan holda, ilk bolalik davrlaridayoq og'zaki nutq muammolarini befarq qoldirmaslik zarur. Umuman olganda, og'zaki nutqning yetarlicha rivojlanganligi yozuv o'zlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydigan asosiy omil sanaladi.

Bundan tashqari, boshlang'ich sinfda o'quvchilar yozma nutqidagi disgrafiyaga xos xatoliklarni kuzatish yozuv o'zlashtirish jarayonining mexanizmlarini tushunish, disgrafiyani erta boshqichda aniqlash va zaruriy tuzatish ishlarini tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan aksariyat xatolarning «fiziologik» ekanligini ham hisobga olish kerak.

Rezyume. Mazkur maqolada disgrafik xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi neyrolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida respondentlarning turli yillarda bajargan yozma ishlari (diktant va ijodiy matn) qiyosiy o'rganilib, fonetik-fonologik, artikulyar-akustik, optik, motor va agrammatik disgrafiyaga xos xatolarning namoyon bo'lish xususiyatlari hamda vaqt davomida kuzatilgan o'zgarishlar aniqlanadi. Tahlillar natijasida ayrim grafomotor va vizual ko'nikmalarda nisbiy ijobiy siljishlar kuzatilgan bo'lsa-da, fonetik-fonologik va agrammatik xatolar ko'pchilik respondentlarda saqlanib qolishi, ayrim hollarda esa yanada murakkablashishi qayd etildi. Olingan natijalar disgrafik qiyinchiliklarning yosh o'tishi bilan o'z-o'zidan bartaraf bo'lmasligini, aksincha, yozma nutq faoliyatiga qo'yiladigan talablar murakkablashgan sari ularning yanada yaqqol namoyon bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari disgrafiyani erta aniqlash, uning neyrolingvistik mexanizmlarini chuqurroq tushunish hamda samarali korreksion-pedagogik dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Abstract. This article analyzes the age-related dynamics of dysgraphic errors from a neurolinguistic perspective. The study is based on a comparative analysis of respondents' written productions collected over different years, with particular attention to the manifestation and longitudinal changes of phonetic-phonological, articulatory-acoustic, optical, motor, and agrammatic dysgraphic errors. The findings indicate that although certain graphomotor and visual skills showed relative improvement over time, phonetic-phonological and

agrammatic errors persisted in the majority of respondents and, in some cases, became more pronounced and complex. The results suggest that dysgraphic difficulties do not resolve spontaneously with age; rather, they may become more evident as the linguistic and cognitive demands of written language increase. The findings have important theoretical and practical implications for the early identification of dysgraphia, a deeper understanding of its neurolinguistic mechanisms, and the development of effective corrective and pedagogical intervention programs.

Резюме. В данной статье анализируется возрастная динамика дисграфических ошибок с нейролингвистической точки зрения. В ходе исследования на основе сравнительного анализа письменных работ респондентов, выполненных в разные годы (диктанты и творческие тексты), были выявлены особенности проявления фонетико-фонологических, артикуляторно-акустических, оптических, моторных и аграмматических дисграфических ошибок, а также изменения, наблюдаемые в их динамике с течением времени. Результаты анализа показали, что, несмотря на относительное улучшение некоторых графомоторных и зрительных навыков, фонетико-фонологические и аграмматические ошибки у большинства респондентов сохранялись, а в отдельных случаях становились ещё более выраженными и сложными. Полученные результаты свидетельствуют о том, что дисграфические трудности не исчезают самостоятельно с возрастом; напротив, по мере усложнения требований, предъявляемых к письменной речи, они могут проявляться ещё более отчётливо. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для раннего выявления дисграфии, более глубокого понимания её нейролингвистических механизмов, а также разработки эффективных коррекционно-педагогических программ.